

## “Akademik bilan suhbat” onlayn loyihasi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda “Akademik bilan suhbat” onlayn loyihasi tashkil qilindi va bu muntazam o‘tkazib borilishi rejalashtirilgan.

Loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarni ilm-fan yangiliklari bilan yaqindan tanishtirish va shu orqali ularni ilm-fanga qiziqtirish va jalb qilishdir.



Ushbu onlayn suhbatning navbatdagisi joriy yil 4-iyun kuni FA Matematika instituti direktori, akademik, Oliy majlis Senati a‘zosi Shavkat Ayupov bilan bo‘lib o‘tadi.